FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING QARORI

150600, Yozyovon tumani Mustaqillik ko`chasi 1-uy, tel: (73) 412-15-15, www.yozyovon.uz

2021 - yil 30 - dekabr 178-11-165-Q/21 Yozyovon tuman hokimligi

Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish tartibi to`g`risida

O`zbekiston Respublikasining “Davlat kadastrlari to`g`risida”gi Qonuni, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 20 yanvardagi 18-sonli “O`zbekiston Respublikasining uy-joy fondini davlat yo`li bilan hisobga olish to`g`risida”gi xamda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 2 sentyabr kungi “Kadastr sohasida ayrim davlat xizmatlari ko`rsatishning ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to`g`risida”gi 535-sonli Qarorlari, O`zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonunning 6 va 25-moddalariga asosan.

QAROR QILAMAN:

1. Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Yozyovon tuman filiali (D.Raximov) ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish tartibi” asosida ish yuritilishini ta’minlasin.

3. Mazkur qaror tuman “Markaziy Farg`ona” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorat qilish tuman hokimining birinchi o`rinbosari A.Eraliyev zimmasiga yuklatilsin

Tuman hokimi **Djalilov D. T.**

Ёзёвон туман ҳокимининг
2021 йил 30 декабрдаги
178-11-165-Q/21-сон қарорига
1-илова
Tuman hokimining 20__ yil
“____” _____dagi __ sonli
qaroriga ilova

Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish tartibi

1.Uy va turar joyning inventar yig’ma jildi uy yoki turar joy foydalanishga qabul qilinib olinayotganda yoxud turar joy uy-joy fondiga kiritilayotganda tuziladi.

Keyingi texnik hisobga olish uylar va turar joylarni vaqti-vaqti bilan rejali xatlashlar o`tkazish yo`li bilan besh yilda kamida bir marta, shuningdek rejadan tashqari tekshirishlar jarayonida hisobga olish ko`rsatkichlari o`zgarishlari aniqlanishiga qarab amalga oshiriladi.

2.Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar mustaqil hujjatlarni tashkil etadi.

3.O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 20 yanvardagi 18-son Qarori bilan tasdiqlangan “O`zbekiston Respublikasida uy-joy fondini davlat yo`li bilan hisobga olishning yagona tizimi to`g`risida”gi Nizomga asosan (*O`zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to`plami, 2000 y., 1-son, 5-modda; O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2001 y., 3-4-son*) Uy-joy fondi inson yashashi uchun yaroqli bo`lgan turar joydan, shu jumladan, uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylar, (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy- joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg`iz qariyalar, internat -uylar, shuningdek bolalar uylari va va boshqa maxsus maqsadli uylar)dan iborat bo`lgan fond.

4.Uy-joy fondini hisobga olish texnik hujjatlar yig`ma jildi, ro`yxatdan o`tkazish daftarlari, inventar hujjatlar yig`ma jildida shakllangan ro`yxatdan o`tkazilgan hujjatlarning nusxalari, boshqa inventarizatsiya hujjatlari tuman yer tuzish va ko`chmas mulk kadastri davlat korxonasi arxivida saqlanadi.

5.Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish uchun yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari tuman Davlat xizmatlari markazi orqali (er tuzish va ko`chmas mulk kadastri davlat korxonasiga) ariza bilan murojaat qiladi.

5. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 2 sentyabr kungi “Kadastr sohasida ayrim davlat xizmatlari ko`rsatishning ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to`g`risida”gi 535-sonli qarorining 1-ilovasiga asosan tasdiqlangan reglamentning 9-bandiga asosan - *“Ariza beruvchi kadastr pasportini olish uchun Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat etadi yoki O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun ro'yxatdan o‘tadi* "-deb belgilangan.

6.Arizalar tuman yer tuzish va ko`chmas mulk kadastri davlat korxonasi tomonidan qabul qilib olinadi va shu kunning o`zida arizalar reestriga qayd qilinadi.

7.Yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish uchun tuman yer tuzish va ko`chmas mulk kadastri davlat korxonasiga telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat ko`rinishida ariza berishlari mumkin.

8.O`zbekiston Respuyulikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya davlat kadastri davlat qo`mitasining 2015 yil 22 oktyabrdagi 33-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko`chmas mulk ob’ektlariga kadastr yig`majildini tayyorlash” Qoidalariga asosan (*ro’yxat raqami 2725, 03.11.2015 y.*) kadastr yig`ma jildi yo`qolgan yoki yaroqsiz holga kelganda huquq egasining arizasiga muvofik tuman yer tuzish va ko`chmas mulk kadastri davlat korxonasi arxivida saqlanayotgan kadastr yig`ma jildining huquq egasiga tegishli qismlaridan nusxa olinadi.

Ushbu nusxalardan iborat kadastr yig`ma jildining har bir varog`iga tuman yer tuzish va ko`chmas mulk kadastri davlat korxonasi rahbari tomonidan asliga to`g`ri degan yozuv kiritiladi va imzolanadi hamda ariza kelib tushgan kundan boshlab ikki ish kun ichida huquq egasiga topshiriladi.

6. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 2 sentyabr kungi “Kadastr sohasida ayrim davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to`g`risida”gi 535-sonli qarorining 1-ilovasiga asosan tasdiqlangan reglamentga asosan kadastr yig`ma jildi yo‘qolgan yoki yaroqsiz

holga kelganda ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasi arxivida saqlanayotgan kadastr yig`ma jildining huquq egasiga tegishli qismlaridan nusxa Davlat xizmatlari markazi orqali taqdim etiladi.